



## Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 18 400 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi<sup>1</sup>




<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillashtirildi



### Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

|                  | 2025-yil 1-yanvar<br>holatiga, birlik | 2026-yil 1-yanvar<br>holatiga, birlik |
|------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|
| Navoiy shahar    | 3 970                                 | 4 608                                 |
| Zarafshon shahar | 1 121                                 | 1 249                                 |
| G'ozg'on shahar  | 316                                   | 424                                   |
| Konimex tumani   | 692                                   | 824                                   |
| Qiziltepa tumani | 2 226                                 | 2 478                                 |
| Navbahor tumani  | 1 639                                 | 1 756                                 |
| Karmana tumani   | 2 653                                 | 3 114                                 |
| Nurota tumani    | 1 044                                 | 1 205                                 |
| Tomdi tumani     | 339                                   | 380                                   |
| Uchquduq tumani  | 576                                   | 581                                   |
| Xatirchi tumani  | 1 589                                 | 1 781                                 |

### Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




## II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabrda 2 891 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-dekabda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 982 ta, sanoatda 448 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 390 ta, boshqa xizmatlarda 343 tani tashkil etgan.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025-yilning yanvar-dekabrda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 982 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 390 ta, sanoatda 448 ta hamda Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 360 tani tashkil etgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


|                  | 2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik | 2026-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik |
|------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------|
| Navoiy shahar    | 704                                     | 902                                     |
| Zarafshon shahar | 214                                     | 217                                     |
| G'ozg'on shahar  | 81                                      | 73                                      |
| Konimex tumani   | 275                                     | 99                                      |
| Qiziltepa tumani | 327                                     | 313                                     |
| Navbahor tumani  | 292                                     | 209                                     |
| Karmana tumani   | 408                                     | 559                                     |
| Nurota tumani    | 131                                     | 142                                     |
| Tomdi tumani     | 99                                      | 40                                      |
| Uchquduq tumani  | 123                                     | 68                                      |
| Xatirchi tumani  | 290                                     | 269                                     |

## III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi

2025-yilning yanvar-dekabrda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 21,1% ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 2,4 % ga pasayish kuzatildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi


2025-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 93,1 %, qurilishda – 61,0 %, xizmatlar sohasida – 58,0 % va sanoatda – 9,5% ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18 559,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 9,5 % ini tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi G'ozg'on shahri (100,0 %), Uchquduq tumani (99,2 %), Qiziltepa tumani (98,1 %) Tomdi tumani (96,9 %), va Zarafshon shahri (95,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 9 883,7 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 61,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 104,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %) va Navbahor tumani (92,1 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmdagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 23 208,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 53,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 179,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurota tumani (98,3 %), G'ozg'on shahri (92,1%), Zarafshon shahri (87,3 %) va Qiziltepa tumani (83,2 %), hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 23 665,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), Uchquduq tumanida (99,1 %), Tomdi tumani (98,9%) va G'ozg'on shahari (98,8%) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 16 420,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 91,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 108,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uchquduq tumanida (99,6 %), Tomdi tumanida (99,2 %), Qiziltepa tumanida (98,6 %) va G'ozg'on shahar (98,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 14 918,4 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 58,0 % ini tashkil etdi.  
O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 114,8 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Nurota tumanida (90,3 %), Uchquduq tumanida (88,7 %), Tomdi tumanida (85,5 %) ni tashkil qildi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






### Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 75,3 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 5,4 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, Qiziltepa tumani, G'ozg'on shahar, 100,0 % va Zarafshon shahrida 95,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




### Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 667,8 million AQSH dollarini yoki jami importning 70,5 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq tumani, G'ozg'on shaharlari, 100 % Qiziltepa tumanida 99,1 %,ni tashkil etdi.

### Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



#### IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

##### Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-dekabrda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 10,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 42,4% ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,7 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 % ni tashkil qildi.

##### Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




## V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

### Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrda 39,9% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrda esa 56,9 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-dekabrda nisbatan 17,0 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrda 54,1 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrda 38,9 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrda 6,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabrda kelib, bu ko'rsatkich 4,2 % ga yetgan.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




### Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi

2021-yilning yanvar-dekabrda 57,2 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrda 58,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrda 41,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrda 40,6 % yoki 0,5 birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrda 1,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabrga kelib, bu ko'rsatkich 1,3 % ni tashkil qildi.

### Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




## Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida 67,7 % ni, qurilish 58,5 % ni va xizmatlar sohasida 55,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida, 42,1 % ni, xizmatlar 39,4 % ni va sanoatda 36,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilishda 11,3 % ni, xizmatlar 5,0 % ni va sanoatda 5,0 % ni tashkil etdi.



## Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



## VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>  
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>



---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Tadbirkorlik subyektlari  
kuzatuvlari bo'limi

**Ijrochi:**

M.Uzoqov  
79 223-57-61

**Manzil:**

210100, Navoiy sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 4

---